IX. TASHQI IQTISODIY FAOLIYAT

2022-yilning yanvar-dekabr oylarida viloyatning tashqi savdo aylanmasi 1 276,1 mln. AQSH dollarni tashkil etgan, jumladan 581,2 mln. AQSH dollarini-eksport, 694,9 mln. AQSH dollarini import tashkil etdi. Tashqi savdo aylanmasining saldosi -100,1 mln. AQSH dollarini tashkil qildi.



(mln. AQSH dollari)

So‘ngi yillarda xukumatimiz tomonidan sanoat tuzilmasini diversifikatsiya qilishni, eksportni qo‘llab-quvvatlash, import o‘rnini bosuvchi tovar va mahsulotlarni ishlab chiqarishni yanada oshirilishi natijasida eksport tarkibida sezilarli o‘zgarishga erishildi. Jumladan, xom ashyo eksportidan, qo‘shilgan qiymati yuqori hamda sarmoya talab tovarlar eksportiga yo‘naltirilgan tashqi savdo amalga oshirilmoqda.

2022- yil yanvar-dekabr oylari viloyat tashqi savdo aylanmasida MDH va boshqa davlatlarning ulushi

(mln. AQSH dollar va foizda)





2022- yilning yanvar-dekabr oylarida viloyatda amalga oshirilgan tashqi savdo aylanmasi o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 117,0 % ga, MDH davlatlari 122,3 % ni tashkil etgan bo‘lsa, boshqa davlatlar 111,4 % ga ko‘paygani kuzatildi.

Jumladan, jami eksport aylanmasi 117,1 % ni va shundan MDH davlatlari 126,7 % ni tashkil etgan bo‘lsa, boshqa davlatlarga 95,8 % ni tashkil etdi.

Jami import aylanmasi 116,8 % ga ko‘paygan bo‘lib, undan MDH davlatlari 115,2 % ni tashkil etgan bo‘lsa, boshqa davlatlar 117,7 % ga ko‘paygan.

MDH va boshqa davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi
(mln. AQSH dollari)

	yanvar-dekabr		O‘sish sur’ati, % da
	2021- yil	2022- yil	
Tashqi savdo aylanmasi	**1 091,0**	**1 276,1**	**117,0**
shu jumladan:			
MDH davlatlari	557,5	681,7	122,3
Boshqa davlatlar	533,5	594,5	111,4
Eksport	**496,2**	**581,2**	**117,1**
shu jumladan:			
MDH davlatlari	342,7	434,2	126,7
Boshqa davlatlar	153,5	147,0	95,8
Import	**594,8**	**694,9**	**116,8**
shu jumladan:			
MDH davlatlari	214,8	247,4	115,2
Boshqa davlatlar	380,0	447,5	117,7

MDH mamlakatlari va boshqa mamlakatlarga eksportning yo‘nalishi bo‘yicha farqlanishlar mavjudligi kuzatilmoqda. Xususan, MDH mamlakatlariga eksportning asosiy qismi oziq-ovqat mahsulotlariga to‘g‘ri kelmoqda, keyingi o‘rinlarda eksport hajmi bo‘yicha asosan yengil sanoat tovarlari, qora va rangli metallar, mashina va asbob-uskunalar va kimyo mahsulotlariga to‘g‘ri kelmoqda.

Viloyatdagi eksport-import tarkibi

	Umumiy hajm *mln.AQSH.dollr*		2021- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan % da
	2021- yil yanvar-dekabr	2022- yil yanvar-dekabr	
Eksport tarkibi	**496,2**	**581,2**	**117,1**
Ichimliklar va tamaki	0,5	1,4	2,8 m.
Kimyoviy moddalar va shunga o'xshash mahsulotlar	5,5	15,4	2,8 m.
Mashinalar va transport uskunalari	10,0	10,2	102,6
Mineral yoqilg'i, moylash moylari va shunga o'xshash materiallar	1,2	1,1	93,3
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	86,3	106,0	122,8
Sanoat mahsulotlari	267,1	302,0	113,1
Turli xil tayyor mahsulotlar	96,3	121,1	125,7
Xizmatlar	16,5	15,2	91,6
Xom ashyo yoqilg'idan tashqari nooziq-ovqat	12,8	8,9	69,8
Import tarkibi	**594,8**	**694,8**	**116,8**
Hayvonlar va o'simlik moylari, yog'lar va mumlar	20,5	29,1	142,2
Kimyoviy moddalar va shunga o'xshash mahsulotlar	71,7	90,7	126,5
Mashinalar va transport uskunalari	197,8	222,9	112,7
Mineral yoqilg'i, moylash moylari va shunga o'xshash materiallar	14,4	20,8	144,7
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	95,7	111,0	116,0
Sanoat mahsulotlari	145,1	161,7	111,5
Turli xil tayyor mahsulotlar	16,8	19,6	116,9
Xom ashyo yoqilg'idan tashqari nooziq-ovqat hisoblanadi	31,6	39,0	123,4

2022- yil yanvar-dekabr oylarida eksport qilingan mahsulotlar va xizmatlar tarkibi bo‘yicha tahlil qilinganda, (2021- yilning tegishli davriga nisbatan), kimyo mahsulotlari 2,8 m. ga, ichimliklar va tamaki 2,8 m. ga ko‘paygani kuzatildi.

2022-yil yanvar-dekabr oylarida viloyat tashqi savdo aylanmasi yuqori ulushga ega davlatlar

(ming AQSH dollari)

Davlatlar nomi	Tashqi savdo aylanmasi	Eksport	Import
Rossiya Federatsiyasi	409432,9	297439,2	111993,7
Xitoy	270706,9	39923,3	230783,7
Qozog'iston	112524,3	44615,0	67909,4
Turkiya	101830,6	41256,8	60573,9
Qirg'iziston	83631,2	62989,2	20642,0
Germaniya	35444,4	8990,5	26453,8
Belorussiya	34676,6	2522,4	32154,2
Polsha	24704,3	11433,0	13271,4
Litva	20426,1	5345,9	15080,3
Koreya Respublikasi	20048,9	3327,9	16721,1
Malayziya	14982,7	-	14982,7
Turkmaniston	14063,6	8364,5	5699,1
Hindiston	12205,6	678,4	11527,2
Ukraina	11074,7	6706,5	4368,2
Frantsiya	10317,3	67,8	10249,6
Tojikiston	10316,7	7001,8	3314,9
Pokiston	9849,4	7458,4	2391,0
Eron	8301,6	4709,4	3592,2
Indoneziya	6539,7	-	6539,7
Italiya	6426,1	1528,7	4897,4

So‘ngi yillarda hukumatimiz tomonidan sanoat tuzilmasini diversifikatsiya qilishda, eksportni qo‘llab-quvvatlash, import o‘rnini bosuvchi tovar va mahsulotlarni ishlab chiqarishni yanada oshirilishi natijasida, eksport tarkibida sezilarli o‘zgarishga erishildi.

Namangan viloyati, jahonning 76 dan ortiq mamlakatlari bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSA ning nisbatan salmoqli hissasi Rossiya Federatsiyasida (32,1 %), Xitoy Xalq Respublikasida (21,2 %), Qozog‘istonda (8,8 %),Turkiyada (8,0 %), Qirg‘iz Respublikasida (6,6 %), Germaniya (2,8 %) va Belorussiya (2,7 %) qayd etilgan.

Shuningdek, qo‘shni davlatlar bilan o‘zaro aloqalarni mustahkamlash, mamlakatlarni ijtimoiy-iqtisodiy, savdo-sanoat hamda madaniy sohalardagi aloqalarini rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirilayotganini ko‘rish mumkin.

2022- yil yanvar-dekabr oylarida viloyat tashqi savdo aylanmasida katta ulushga ega bo‘lgan davlatlar

Davlatlar nomi	Viloyat tovar aylanmasida ulushi % da	2021- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan % da
Rossiya Federatsiyasi	32,1	132,5
Xitoy	21,2	102,7
Qozog'iston	8,8	103,4
Turkiya	8,0	96,7
Qirg'iziston	6,6	107,1
Germaniya	2,8	2,2 m.
Belorussiya	2,7	160,3
Polsha	1,9	143,7
Litva	1,6	2,7 m.
Koreya Respublikasi	1,6	161,5
Malayziya	1,2	2,3 m.
Turkmaniston	1,1	117,8
Hindiston	1,0	66,4

davomi

Davlatlar nomi	Viloyat tovar aylanmasida ulushi % da	2021- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan % da
Ukraina	0,9	61,1
Frantsiya	0,8	112,8
Tojikiston	0,8	155,7
Pokiston	0,8	5,1 m.
Eron	0,7	101,2
Indoneziya	0,5	4,0 m.
Italiya	0,5	71,6

2022- yil yanvar-dekabr oylarida jami eksport tovarlari hajmida tarmoqlarning ulushi *(% da)*



2022-yil yanvar-dekabr oylarida eksport qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibi tahlili shuni ko‘rsatdiki, 2022- yilning yanvar-dekabr oylarida amalga oshirilgan eksportning umumiy hajmiga nisbatan yengil sanoat ulushi 52,0 %, har xil tayyor mahsulotlar eksportining ulushi 20,8 % ni hamda oziq ovqat va tirik hayvonlar eksportining ulushi esa 18,2 % ni tashkil etdi.

Xizmatlar eksporti hajmi 15 159,3 ming.AQSH dollarini yoki jami eksport hajmining 2,6 % ni tashkil etib, o‘tgan-yilning mos davriga nisbatan 91,6 % ga kamayganligi kuzatildi.

Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi transport xizmatlari, turizm xizmatlari, moliyaviy xizmatlaridan iborat.

2022- yil yanvar-dekabr oylarida jami eksport tovarlari hajmi shahar va tumanlar kesmida
(ming AQSH dollari)

	yanvar-dekabr		O‘sish sur’ati, % da
	2021- yil	2022- yil	
Viloyat jami	**496 183,9**	**581 224,2**	**117,1**
Namangan sh.	152 803,2	191 632,5	125,4
Mingbuloq	22 566,6	4 017,7	17,8
Kosonsoy	33 220,2	57 212,3	172,2
Namangan t.	23 171,1	27 558,4	118,9
Norin	24 046,6	5 543,6	23,1
Pop	14 528,7	18 828,5	129,6
To‘raqo‘rg‘on	80 969,9	103 449,3	127,8
Uychi	44 441,6	36 565,7	82,3
Uchqo‘rg‘on	31 213,7	40 866,3	130,9
Chortoq	9 494,0	3 088,1	32,5
Chust	33 148,0	50 581,6	152,6
Yangiqo‘rg‘on	25 041,4	37 565,9	150,0

To‘qimachilik mahsulotlari eksporti hajmining oshishi bevosita paxta xomashyosi o‘rniga tayyor mahsulot ishlab chiqarish va qo‘shimcha qiymat yaratish maqsadida amalga oshirilgan islohotlarning natijasi ekanini ko‘rish mumkin. Jumladan, joriy yilda 390,3 mln.AQSh dollarlik to‘qimachilik mahsulotlari eksporti amalga oshirilib, umumiy eksportning 67,2 % ini tashkil etdi va o‘tgan yilga nisbatan 113,3 % ga o‘sdi.

2022- yil yanvar-dekabr oylarida viloyat eksportida asosiy hamkor davlatlarning ulushi, *(% da)*



Viloyatdan eksport qilinayotgan tovar va xizmatlarning asosiy qismi Rossiya Federatsiyasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Turkiya, Polsha va Germaniya davlatlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda. Bu esa umumiy eksport xajmining 87,2 % tashkil qiladi.

Rossiya Federatsiyasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Turkiya, Polsha va Gernmaniya davlatlariga eksport qilinayotgan tovarlar tarkibiga nazar tashlasak, asosan yengil sanoat mahsulotlari oziq-ovqat mahsulotlari guruhlaridan iborat ekanligini ko‘rishimiz mumkin.

2022- yil yanvar-dekabr oylarida jami import tovarlari hajmi shahar va tumanlar kesmida

(ming AQSH dollari)

	Yanvar–dekabr		O‘sish sur’ati, % da
	2021- yil	2022- yil	
Viloyat jami	**594 817,5**	**694 909,1**	**116,8**
Namangan sh.	252 168,3	295 791,7	117,3
Mingbuloq	25 109,7	8 223,4	32,7
Kosonsoy	42 161,5	49 928,0	118,4
Namangan t.	33 248,1	39 016,0	117,3
Norin	39 738,2	39 345,2	99,0
Pop	18 643,3	23 595,5	126,6
To‘raqo‘rg‘on	23 562,2	41 792,8	177,4
Uychi	43 331,6	49 992,4	115,4
Uchqo‘rg‘on	8 669,5	13 925,3	160,6
Chortoq	29 106,3	50 728,8	174,3
Chust	41 916,7	59 016,9	140,8
Yangiqo‘rg‘on	33 357,7	23 553,1	70,6

Joriy davrda import qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibi tahlili shuni ko‘rsatdiki, 2022- yilning yanvar-dekabr oylarida amalga oshirilgan importning umumiy hajmiga nisbatan mashina va uskunalar importining ulushi 32,1 % ni, sanoat mahsulotlari importining ulushi 23,3 % ni, oziq-ovqat mahsulotlari importining ulushi 16,0 % ni hamda Kimyoviy moddalar va shunga o'xshash mahsulotlar importining ulushi esa 13,1 % ni tashkil etdi.

2022- yil yanvar-dekabr oylarida jami import tovarlari hajmida tarmoqlarning ulushi *(% da)*



2022- yil yanvar-dekabr oylarida viloyat importida asosiy hamkor davlatlar ulishi, *(% da)*

2022- yil yanvar-dekabr oylarida viloyatga 76 ta xorijiy davlatlardan tovar va xizmatlar importi amalga oshirilgan. Shundan 9 ta eng yirik bo‘lgan Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Qozog‘iston, Turkiya, Germaniya, Belarusiya va Qirg`iz Respublikasi kabi xamkor davlatlarning jami import hajmi 550 510,0 ming AQSH dollarga teng. Bu esa umumiy import hajmining 79,2 % ni tashkil qiladi.